

**RAQAMLI HUQUQLAR FAOLLIGI: INSON HUQUQLARI BO'YICHA  
ISLOHOTLARNI HIMOYA QILISH UCHUN IJTIMOYIY TARMOQLARDAN  
FOYDALANISH**

**Xushvaqtova E'zoza Mirobid qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401913>

**Annotatsiya.** Bugungi kun jahon ijtimoiy-siyosiy hayotida raqamli huquqlar faolligi alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu sababli, ushbu maqolaning maqsadi virtual olamda inson huquqlarini himoya qilish zaruriyati va xorijiy mamalakatlar tajribasini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi – berilgan mavzu yuzasidan ilmiy adabiyotlarni, shuningdek, xorijiy mamalatlarda raqamli huquqlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni o'rganishdir.

**Kalit so'z:** axborot, raqamli huquq, inson huquqlari, internet, kibermakon.

**DIGITAL RIGHTS ACTIVISM: USING SOCIAL MEDIA TO ADVOCATE HUMAN RIGHTS REFORM**

**Abstract.** Today, the activity of digital rights is gaining special importance in the social and political life of the world. Therefore, the purpose of this article is to analyze the need to protect human rights in the virtual world and the experience of foreign countries. The research methodology is the study of scientific literature on the given topic, as well as regulatory documents regulating digital rights in foreign countries.

**Key words:** information, digital law, human rights, Internet, cyberspace.

**АКТИВИЗМ ЗА ЦИФРОВЫЕ ПРАВА: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ ДЛЯ АДВОКАТСКОЙ РЕФОРМЫ В ПРАВАХ ЧЕЛОВЕКА**

**Аннотация.** Сегодня деятельность цифровых прав приобретает особое значение в общественно-политической жизни мира. Поэтому целью данной статьи является анализ необходимости защиты прав человека в виртуальном мире и опыта зарубежных стран. Методологией исследования является изучение научной литературы по заданной теме, а также нормативных документов, регулирующих цифровые права в зарубежных странах.

**Ключевые слова:** информация, цифровое право, права человека, Интернет, киберпространство.

**KIRISH**

Zamonaviy internet asri inson huquqlariga ko'plab tahdidlarni keltirib chiqaradi. Raqamli asrda qonun ijodkorlari uchun ushbu tahdidlar orasida maxfiylikni himoya qilish asosiy o'rinda turadi. Inteenet bugungi kunda so'z erkinligi huquqini amalga oshirish vositasidan tashqari kengroq ma'nodagi tushunchaga aylangan. Xususan, uzoqdagi yaqinlar, do'stlar bilan muloqot qilish, ta'lim olish, ma'lumotlar va xizmatlardan oson foydalanish kabi imkoniyatlarni, bundan tashqari, axborotni tez qabul qilish va uzatish imkoniyatini bermogda.

**TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Bugungi kunda turli ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat ko'rsatuvchi blogerlar, yutuberlar, smm-mutaxassisleri kabi yangi kasblar paydo bo'ldi. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi Internetning ahamiyatini yanada oshirdi. Biz bir vaqtning o'zida ikkita makonda –

oflayn va onlayn faoliyat yuritimiz, deb ayta olamiz. Shuni hisobga olib, bunday imkoniyatlar himoyasini ham kuchaytirish kerak.

Agar xalqaro va xorijiy tajribaga qaraydigan bo'lsak, yangi konstitutsiyaviy islohotlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, Fransiya va Angliya konstitutsiyalari Internetga kirish va undan foydalanish huquqini kafolatlaydi. Ayrim davlatlarning yangi konstitutsiyalarida ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, kibermakon kabi atamalar qo'llanilmoqda, ya'ni Internet tarmog'i bilan bog'liq huquqlar kafolati bosqichma-bosqich konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanmoqda.

Bundan tashqari, BMTning Inson huquqlari kengashi Internetni inson huquqlarini amalga oshirishning muhim vositalaridan biri deb belgiladi.

Bir qator kuzatuvlarga shuni ko'rsatmoqdaki, bu mavzu yechimi hozirda eng muhim va ustuvor hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va ijtimoiy hayotning kibermakonga ko'chishi raqamli olamda inson huquqlari va majburiyatlarini vujudga keltirib, uni tartibga solishni taqazo etadi.

### **MUHOKAMA**

Xo'sh, raqamli huquqlar himoyasini aynan qonuniy darajada belgilashga ehtiyoj bormi?

Raqamli texnologiyalar vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 2016 yil 12,1 million ortiq internetdan foydalanuvchilar bo'lgan bo'lsa, xozirgi kunda bu raqam 31 million yetgan. O'zbekiston hududining Internet bilan qamrovi darajasi 2016 yil 28 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugun ushbu ko'rsatgich 98 foizga yetdi. 2016 yildan beri internetkanallarining umumiy o'tkazish qobiliyati (tezligi) deyarli 50 barobarga – 64,2 dan 3 200 Gbit/s gacha oshirildi. Proвайderlar uchun Internet xizmatlari tariflari narxi 1 Mbit/s uchun 91,5 dan 3 dollargacha, ya'ni 30 barobarga arzonlashdi.

O'zbekistondaraqamlashtirishni rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda: 2020 yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinib, maxsus Davlat dasturi ham qabul qilingan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi amalga oshirilmoqda.

Bu boradagi islohotlar davom etishi va bu tizimli asosda bo'lishi lozim. Bizning huquqlarimiz Internet makonida yaxshi himoyalanganmi?

Internetdan foydalanish uchun shart-sharoitni yaratish borasidagi davlatning majburiyati konstitutsiyaviy darajada belgilanmoqda. Mazkur normaning Konstitutsiyamizda mustahkamlanishining bir qator afzlliklari mavjud:

- Birinchidan, bu boradagi qonunchiligimiz va amaliyotimizni tizimli asosda takomillashtirishga xizmat qiladi;
- Ikkinchidan, huquqlarimizni onlayn makonda samarali amalga oshirishga hamda Internetdan foydalanish xavfsizligini kuchaytirishga xizmat qiladi;

### **TADQIQOT NATIJALARI**

BMTning "Raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqi to'g'risida"gi rezolyutsiyasi ishlab chiqiqqlan, unda dunyoning barcha mamlakatlarini raqamli muhitda shaxsiy daxlsizlikka bo'lgan inson huquqlarini himoya qilishga va amalga oshirishga doir chaqiriqlar belgilan qo'yilgan.

Angliyadagi raqamli huquqlar instituti internet foydalanuvchilarini shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlashdan himoya qilish, noqonuniy nusxa ko'chirish va internet orqali tarqatilishi mumkin bo'lgan asarlarga nisbatan mualliflik huquqini himoya qilish sohalarini o'z ichiga oladi.

2017-yil Germaniyada raqamli olamda inson huquqlarini himoya qiluvchi fond tashkil qilingan. Fondning asosiy vazifasi ma'lumot almashish va boshqalarning raqamli huquqlarini buzuvchi kompaniyalar va shaxslarga qarshi da'volarni qo'llab-quvvatlashdir.

#### **XULOSA**

Tahlil qilingan xulosalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va boshqa xorijiy mamlakatlarda ham Germaniya davlatinikiga o'xshash ijtimoiy tarmoqlarda, umuman, raqamli olamda inson huquqlarini himoya qilish uchun kurashadigan jamoat fondlarini tashkil etish samarali yo'l hisoblanadi.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2016-y. 7-b 2. [www.digitallibrary.un.org](http://www.digitallibrary.un.org)
2. BMT "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" 10.12.1948., O'zbekiston Respublikasi tomonidan 30.09.1991 yilda ratifikatsiya qilingan.
3. [www.cgi.br](http://www.cgi.br) 5. [www.legislation.gov.uk](http://www.legislation.gov.uk) 6. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)